


NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2019 yil yanvar-mart oylarida
asosiy kapitalga investitsiyalar




Joriy davrda 4597,5 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 73,2 %ni jalbetilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korhona, tashkilot va aholining o'zmablag'lari hisobidan 26,8% ni moliyalashtirildi.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yani jami investitsiyalarning 17,3 %i korhona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 3,4 %, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 0,9%, aholi mablag'lari 5,2%, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 43,8%, Respublika byudjeti 0,9 % va Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari 28,5 % va Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan esa 0,02% asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, %da)






Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)



	mlrd.so'm	o'sish sur'ati, %da	jamiga nisbatan, %da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	4597,5	212,7	100,0
Republika byudjeti	41,7	573,8	0,9
Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari:	1308,6	458,4	28,5
Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi	1,1	-	0,02
O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	2013,7	180,3	43,8
Korhona mablag'lari	796,9	208,6	17,3
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	155,8	125,5	3,4
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	39,9	73,2	0,9
Aholi mablag'i	239,8	354,0	5,2



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar



	mlrd.so'm	o'sish sur'ati, %da	jamiga nisbatan, %da
Navoiy viloyati jami	4597,5	212,7	100,0
Navoiy shaxar	1310,8	143,2	28,5
Zarafshon shaxar	477,3	100,2	10,4
Karmana tumani	1999,7	376,4	43,5
Konimex tumani	163,4	608,8	3,5
Qiziltepa tumani	165,0	274,4	3,6
Navbahor tumani	45,4	167,7	1,0
Nurota tumani	37,7	284,7	0,8
Tomdi tumani	179,1	5269,5	3,9
Uchquduq tumani	152,1	198,4	3,3
Xatirchi tumani	67,0	203,4	1,5

Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Tomdi tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tganyilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 5269,5 %, Konimex tumani 608,8 %, Karmana tumani 376,4 %, Nurota tumani 284,7 %, Qiziltepa tumani 274,4 %, Xatirchi tumani 203,4%, Uchquduq tumani 198,4 %, Navbaho tumani 167,7 %, Navoiy shahar 143,2 %, va Zarafshon shahar 100,2 %, ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami	Davlat	Nodavlat
Jami, mlrd.so'm	4597,5	2982,4	1615,1
<i>Shujumladan: umumiy hajmga nisbatan foiz ko'rinishida</i>			
Qurilish –montaj ishlari	24,3	12,5	45,4
mashina, uskunalar,transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari	60,1	87,0	10,1
Boshqa harajatlar	15,6	0,5	44,5

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining tusilishi 2018 yil yanvar-mart nisbatan qurilish-montaj ishlarining ulushi 24,3 foizli punktga, mashina-uskunalar,transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari qiymati ulushi 60,1 foizli punktga kamaygan va boshqa harajatlarning ulushi 15,6 foizli punktga ko'paygan.



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha hududlar kesimida Navbahor tumani hamon yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 77,4 %ni tashkil etdi.


Shuningdek Xatirchi tumani 70,9%ni, Nurota tumani 70,0%ni, Qiziltepa tumani 33,6%ni tashkil etmoqda.

Navoiy shahar va uchquduq tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 9,6 va 7,4 %ni tashkil etdi.

Karmana hamda Konimex tumanlarida investitsiyalarning viloyatdagi ulushi 4,3 va 3,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, Zarafshon shahar va Tomdi tumanida bu ko'rsatkich bo'yicha eng kabi bo'ldi – 3,3 va 2,2 %.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 1117,7 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 2764,5 mlrd.so'mva boshqa xarajatlarga 715,2 mlrd. so'm o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi




Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta quollantirishga yo'naltirilgan, ushbu yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2381,3 mlrd.so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 51,8 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar 2044,9 mlrd.so'mni

tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 44,5 %ini tashkil etdi. Qolgan 3,7 %, yani 171,2 mlrd.so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.



Obyektlarni ishga tushirish



Ijtimoiy sohada 2019 yil yanvar-mart oylarida umumiy maydoni 99,3 ming kv.m, bo'lgan 631 ta turar joy obyektiyangi qurilib ishga tushirilgan bo'lib, ulardan umumiy maydoni 92,6 ming kv.m. bo'lgan 495 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Xatirchi tumanida ishga tushirilgan 27,1 ming kv.m. va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 27,3%ini tashkil etdi. Keyingi o'rinlarda Navbahor tumani va Karmana tumani egallagan bo'lib, viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 26,7va 18,9 %initashkil etishgan.

Eng kam turar joy Uchquduq tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 1,0 %ni tashkil etdi.



**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(79) 223-54-73**